

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Yuldasheva To'tixon Yakubovna- "Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrası" assistenti

totiyoyuldasheva1968@gmail.com

Qazaqboyev Shoxbozbek Husniddin o'g'li- Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

shoxbozbekqazaqboyev@gmail.com

Mirzakarimov Maxsudbek Mirziyodjon o'g'li- Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

mirzakarimovmahsudbek1@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yoshlar o'rtasida ommalashib borayotgan "Kosmopolitizm" g'oyasi natijasida insonlarni ona Vatandan kechib, o'zga yurtlarda yashashlari, muqaddas Vatan tuyg'usini qadriyat sifatida unitilib borayotgani, ajdodlarimizni Vatanga munosabati, avlodlarga o'gitlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: rivojlangan mamlakatlar, O'zbekiston yoshlari, "Kosmopolitizm" g'oyasi, Ona Vatan, o'zga yurt, muqaddas tuyg'u, qadriyat, ajdodlar o'giti, avlodlar burchi.

Dunyoda globallashuv jarayoni ta'sirida sodir bo'layotgan voqea hodisalar o'z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy, umuminsoniy tushuncha va qadriyatlar namoyon bo'lishiga, shaxsning qarashlari, e'tiqodi, tafakkurining, oxir-oqibat insonning jamiyat, davlat va tabiat bilan munosabatlarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlod ongida turli shaklarda namoyon bo'lar ekan, bunga dunyo bo'ylab keng yoyilib borayotgan kosmopolitizm goyasini misol keltirish mumkin.

Kosmopolitizm (yunoncha kosmopolites dunyo fuqarosi) – dunyo fuqaroligini da'vo qilish, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlikdan voz kechishga - bewatanlikka da'vat etuvch qarashlardan iborat mavkura. Kosmopolitizm - Mokedoniyalik Iskandar yurishlari davrida paydo bo'lgan. Uyg'onish va ma'rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi mavkurasi ilgari surilib, individning zamindor boylar zulmidan ozod bo'lish g'oyasida ifodalangan. Kosmopolitizm milliy an'ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga, bewatanlikka da'vat etadi. Bu tushuncha insonning qorni qayerda to'ysa o'sha joyni Vatan deb ifodalanadi.

Aslida esa Vatan - kindik qonimiz to'kilgan, jonga jondosh, qalbga sirdosh eng ulug' makom. Otabobolarimiz so'zlariga bilan aytganda: "Vatan - muqaddas dargoh, mo'jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo'lgan, har qarich yeri-yu, kaftdek tuprog'i zar, ko'zga gavhardir" Burhonuddin Marg'inoniyning . "Hidoya" asarida e'tirof etilganidek: "Vatanni sevmoq iymondandir".

Globallashuv davlatlar va makonlar orasidagi chegaralarni yuvilishi natijasida, qirg'inbarot urushlar natijasida o'z Vatani tashlab ketishga majbur bo'lgan xalqlar, o'zga davlatlarda hayotini davom ettirishga, Vatanda yashashdek oliy ne'matdan farzandlari jonini saqlash, omon qolish uchun kechmoqdalar. Tinch bo'lsada ishsizlik va migratsiya masalalari tufayli chet davlatlarda istiqomat qilayotgan, vatanidan, yaqinlaridan yiroqda yashayotgan tengdoshlarimiz chet davlatlarida turli sohalarda faoliyat olib bormoqdalar.

Dunyo xalqlari yoshlari siyosiy boshpana izlab, yoki mehnat muhojiri sifatida rivojlangan davlatlarga yashar ekan o'sha davlatni o'z ona Vatani sifatida qabul qilmoqda. Buning asosiy sababi yoshlarning qalbiga Vatan tuyg'usi o'z vaqtida singdirilmaganligida deb o'ylayman.

Mening tasavvurimda Vatan misli qimmatli Ko'hinur olmosi kabi, farzandlar uchun ardoqli bo'lishi kerak. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamizot ham o'z ona tuprog'ida baxt osmonini quchmog'i mumkin. Bu maskanning na bahosi va na qiyoslanuvchi tengi bor. Vatan ajdodlarimiz tomonidan azaldan muqaddas sanalgan, suvidan to giyohiga qadar begona ko'zlardan himoyalangan, tengi va qiyosi yo'q maskan. Bu yurt uchun har bir farzand jon kuydurmog'i, kelajagi uchun oz bo'lsa-da nafi tegadigan bo'lib yashamog'i lozim. Bu maskan qadrini faqat bir soniya bolsa ham musofir bo'lgan insongina tushunadi.

Bir donishmandning "Bilimning o'zi kamlik qiladi, siz uni qo'llashingiz kerak, xohishning o'zi kamlik qiladi, siz uni amalga oshirishingiz kerak", - degan so'zlari mohiyatidan kelib chiqib, o'zimizda mavjud imkoniyat va iqtidorni yanada kamol toptirish, ularni amalda qo'llay bilish orqali yuksak marralarni egallash mumkin. Buning uchun esa yurtimizdagi mavjud shart-sharoitlardan foydalanishimiz va yurt ravnaqiga o'z hissamizi qo'mog'miz darkor. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qon-qonimizga singigan bo'lib, har birimizdan Vatan rivoji va taraqqiyoti ustivorligini tan olish, bu yo'lda fudokorona faoliyat olib bo'rishimizni nazarda tutadi.

Xokimiyat ilinjida nizolar keltirib chiqayotgan bir Vatan va bir jamiyat a'zolari "faoliyati" natijasida obod diyorlar vayron bo'lmoqda. Vayronagarchiliklar yuz berayotgan davlatlarni eshitganda beixtiyor: "Tinch Vatanimizga ko'z tegmasin", deb duo qilishga shoshilamiz. Siyosiy nayraglarga aldanib qolgan yosh avlod vakillarining o'zga urish olib borilayotgan yurtlarga xizmatga yollanayotganligi bot-bot eshitib qolamiz. Bunday tegdoshlarimizga aytar so'zim bor: Buz bu zamin uchun yovlarga qarshi kurashlarda shahid bo'lgan ajdodlar ruhi oldida qarzdormiz. Bugungi tinch va osuda hayotni ajdodlarimiz orzu gilib yashaganlarini tarix varaqlaridan bilamiz. Iqtisodiy muammolar qanchalik "og'ir tosh bosmasin" haqiqiy inson vatan tushunchasini qalbiga singdirib, mehr rishtasini qadab yashashi kerak, haqiqiy insoniylik va vatanparvarlik shundan iborat.

Badiiy asarlarda vatan onaga qiyoslanadi va "ona vatan" jumlasini bilan ifodalanadi. Onamiz biz chun qanchalar muqaddas inson ekanligini bir so'z bilan ifodalash qiyin. "Jannat onalar oyog' ostida" ekan, Vatan onangiz ayog'i ostidagi zamin emasmi, ikkisini bir-biridan ayrib tushunib, anglab bo'ladimi? Onalarning bizga bahshida umrini xaqqini ado eta olamizmi? "Vatan qadrini vatangado va musofir biladi"-deydi dono xalqimiz. Bobokalonimiz, Boburiylar saltanati asoschisi bo'lgan Zahiriddin Muxammad Boburni umrini oxirgicha Vatan sog'inchi tuyg'usi azoblamadimi. Ushbu tuyg'u, sog'inchi azobi barcha asarlarida sezilib turishi bejiz emas.

Vatan tuyg'usi hamisha o'z tuprog'idan yiroqdagi insonlar uchun, qo'l yetmas quyoshdek uzoq, nuri va issiqligi bilan qalblarni ohangraboddek tortguvchi kuchga ega. Tuning osudaligi, kunning osoyishtaligi ne-ne insonlar, xalqlar, yurtlar orzusiga aylandi bugun. Vatan qon-qonimizga singgan an'ana, yurak-yurakka qadalgan ezgulik, nigohlar tub-tubiga jo bo'lgan shukronalik tuyg'usidir. Uning qadrini qadrlash va saqlash qaddi tik va ozod avlodlarning muqaddas burchidir.

Xulosa o'rnida shu aytmoqchimanki, go'zal va ozod Vatanimiz O'zbekiston mehr va sog'inchi qorishgan buyuk ajdodlar kalomida bayon etilgan muqaddas go'sha. Ona yurtimiz doimo biz farzandlar uchun jonsarak ona kabi mehribon, farzanlar qalbidagi muqaddas dargoh.

Yurtning kelajagi yoshlar qo'lida ekan biz yosh avlod vakillari jahon minbarida Vatan bayrog'i hilpirab turishi uchun hamisha kamarbastamiz. Qalbi olov yosh avlod ezgu orzulari bilan O'zbekiston kelajagi yo'lida shahdam qadam tashlab bormoqda.

Osmon qadar orzulari sari dadil qadam tashlayotgan tehgoshim, Vatanning musaffo osmoni, nurli quyoshini qadrla, asra, har vaqt himoya qilishga shay tur. Uning rivoji uchun tinimsiz izlanishda, harakatda bo'l. Ona xalqimiz va Vatanimiz porloq kelajagi, yurt ravnaqiga hissa qo'shishni sharaf deb bil, Vatanimiz oldidagi burchingni ado et.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Zaxiriddin Muhammad Bobur., Boburnoma , T; "O'zbekiston" nashriyoti, 2024 yil

Burhonuddin Marg'inoniy, "Hidoya", T; "Hilol" nashriyoti, 2022 yil

"Iskandarning yurishlari", Arrian., T; "Oefen.uz" nashriyoti, 2023 yil

X. Davron, "Vatan haqida yetti rivoyat", kh-davron.uz.kutubxona/

Юлдашева, Т. Я., & Исомиддинов, С. (2024). Ўзбекистон Республикаси Конституцияда ёшлар ҳуқуқ ва эркинликлари кафолати. *Science and innovation*, 3(Special Issue 20), 311-313.